

SITORA SHOMURODOVA LIRIKASIDA AYOL VA JAMIYAT  
MUNOSABATINING AYRIM KO'RINISHLARI

Sobitova Robiyaxon Salohiddin qizi

Qo'qon davlat universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti talabasi  
robixonsobitova04@gmail.com  
+998917392805

MAQOLA  
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.06.2026  
Revised: 24.06.2026  
Accepted: 25.06.2026

Maqolada Sitora Shomurodovaning "Bir yilda 364 ayol o'zini yoqqanmish, jimirlar etim" deb boshlanuvchi she'ri tahlilga tortilgan. Unda she'rning tarixiy-badiiy ahamiyati, shoiraning qalb kechinmalari orqali ifodalamoqchi bo'lgan maqsadi ko'rsatib berilgan.

KALIT SO'ZLAR:

Ayol, qalb, ruhiyat,  
noziklik, zamon, kul,  
tarix, o't yoqish.

Sitora Shomurodova lirikasi o'zining sodda tili, halqona uslubi va fikrlarning aniq so'zlar orqali ifodalanishi bilan ajralib turadi. Uning she'rlarini tushunish oson bo'lib, undagi qahramon ruhiyatini ifoda etuvchi o'rinlar hayotga yaqin va tabiiy bayon qilingan.

Shoiraning "Bir yilda 364 ayol o'zini yoqqanmish, jimirlar etim" deb boshlanuvchi she'rida an'anaviy mavzu ko'lamiga ega bo'lgan go'zal yor, mashuqa, muhabbat va nazokat sohibasi bo'lgan nafis ayol haqida emas, balki jamiyatning ishchi kuchi bo'lgan, ezilgan, singan, ruhiyati siqiq, hayotdan bezgan, o'zini o'limga mahkum qilgan ayollar qismati, baxtsiz ma'sumalar taqdiri haqida so'z boradi.

Bir yilda 364 ayol

O'zini yoqqanmish, jimirlar etim.

Zulmga, zolimga isyon qilish-chun,

Necha yuz bolalar qoldiykan yetim...

1988-yilda O'zbekiston SSSRda 364 ta ayol o'zini yoqdi (arxivdan).

She'r — "Bir yilda 364 ayol o'zini yoqqanmish..." misrasi bilan boshlanadi. Unda shoir o'ziga o't qo'ygan ayollar fojiasini nafaqat shaxsiy nuqati nazaridan, balki butun ijtimoiy davr muammosi sifatida ko'taradi. Mo'jazzgina shu to'rt misra oraqli shoira butun bir davrni

o'quvchi xayolida qayta jonlantirib, so'z qo'llashdagi o'ziga xos mahoratini ko'rsatib beradi.

XX asrning oxirgi o'n yilligi sobiq Sovet Ittifoqi, jumladan, O'zbekiston tarixida murakkab siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar davri bo'ldi. 1980-yillarning oxirida "qayta qurish" va "oshkoralik" siyosati natijasida ilgari yashirin qolgan ko'plab ijtimoiy muammolar ochiq muhokama qilina boshladi. Shunday masalalardan biri — ayollarning ijtimoiy tengsizlik, oilaviy tazyiq va zo'rvonlik tufayli o'z joniga qasd qilishi, xususan, o'zini yoqish holatlarining ko'payishidir. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1988-yilda O'zbekiston hududida 364 nafar ayol o'zini yoqqan. Bu hodisa jamiyatni larzaga keltirgan, biroq ko'p hollarda bu fojia haqida ochiq so'z yuritilmagan.

Ayol shu qadar cho'ng, shu qadar nozik,  
Anglab ham bo'lmaydi neni xohlashin.  
Ammo har ayolning yig'laganida  
Artguvchisi bo'lsin ko'zdagi yoshin...

Bu satrlar orqali ayolning murakkab ichki dunyosi ifodalanadi. Shoira mazkur she'rida o'zbek ayolini bor bo'yicha gavdalantirib, ayolni goh kuchli, goh nozik xilqat sifatida tavrilyadi. Bu ikki fazilat birligida — ayol tabiatining mohiyatini ochib beradi. Lekin shoira keyingi misralar orqali ayol shunchalik sabr-qanoatli, jasoratli bo'lmasin, u doim suyanguvchi, ishonguvchi bir yelkaga muhtoj ekanligi, g'am-u tashvishda ko'zyoshlarini artguvchisi bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tadi.

Shoirman, ayolman: hamdardligim mo'l,  
Bu she'r ham sizlarga yoqmayaptimi?  
Bugungi tinch hamda go'zal zamonda  
Ayollar o'zini yoqmayaptimi?

Bu misralar orqali shoira o'zini nafaqat ijodkor sifatida, balki oddiy ayollardan biri ekanligini, shu boisdan ham u ko'proq ayollar qalbini, ayol dardini kuylashga haqliroqligini, ushbu fojiaga o'zining cheksiz hamdardligini izhor qiladi. "Bugungi tinch zamonda ham ayollar o'zini yoqmayaptimi?", deya ritorik so'roqlar orqali o'quvchini sergaklikka chaqiradi.

Raqamlar yo'q deya beradi sado,  
Ijobiy natija chiqmish so'rovdan.  
Xabarsizmiz, jismi butun ayolning  
Ruhini jizg'anak qilgan olovdan.

"Ayollar o'zini yoqmayaptimi?" degan nidoga raqamlarning bugungi kunda "yo'q" deb javob berishi, aslida yuzasidan sokin ko'ringan daryoning ichida shiddatli oqimlar borligidan bizni ogohlantirayotgandek bo'ladi, shu o'rinda ayolning ichki qalb og'riqlarini qalamga olinishi M.Salimovanning "sukunat ortida bo'ronlar tirik" degan she'rini yodga soladi:

Ovozsiz yig‘lagan ko‘zlarni ko‘rdik,  
Tomchilar ortida ummonlar bordir.  
Sukunat ortida bo‘ronlar tirik,  
Ko‘nishlar ortida isyonlar bordir!

O‘tar suruv-suruv ayollar mana,  
Yelkasida ro‘zg‘or, ko‘kragida or.  
Ko‘zlarim achishib, og‘rir vijdonim  
To‘maris avlodi nahot mardikor!

Bu o‘rinda keltirib o‘tilgan ayol obrazi To‘maris — jasorat, erk, ozodlik ramzi. Shoiria bu obraz oraqli bugungi ayollar hayotidagi ziddiyatni ochib beradi, bir paytlar sarkarda bo‘lgan ayol avlodi endi “mardikor” bo‘lib yashayapti. Qadr-qimmatini toptalgan, ro‘zg‘orning “mardikor”iga aylanib qolgan ayolning qismatiga shoiria ko‘z yumolmaydi. Yuqoridagi misralar orqali insonlarni xushyor torttiradi.

Zamondosh, talab-chun avvaldan uzr,  
Baxtlimisan deya beringiz savol.  
Ulg‘aytirmasmikan ulnimas, qulni  
Ruhida bir hovuch kul qolgan ayol?

Endigi satrlarda shoiria zamondoshiga murojaat, ham talab bilan yuzlanadi. Ruhi yonib, bitib, kulga aylangan ayolga “Baxtlimisan?” deya savol berib ko‘ring, deydi. Umr sinovlari, hayot qiyinchiliklari otashida kuygan ayol qanday qilib er yigitlarni ulg‘aytirsin, bu ketishda undan faqatgina “qullar” tarbiya topadi?! Misradagi “ul va qul” so‘zlarining bir-biriga zid qo‘yilishi, har bir so‘zdan ma‘lum bir maqsad asosida o‘rinli foydalanish va qisqa ifodalar shoiria so‘z qo‘llash mahoratining o‘ziga xosligini namoyon qiladi.

Ayolga kuch emas, baxtni ulashing,  
Qalqon bo‘ling, sha‘ni, oriyatiga.  
To ayol dunyosi aylanmasin hech  
G‘ullar va kullarning mamlakatiga...

Bu satrlar oraqli shoiria ayol uchun kuch-quvvat bo‘ling, unga kuch bermang, uni o‘zingiz asrang, qadr-qimmatini, sha‘ni uchun mas‘ul bo‘ling, toki ayolning olami “g‘ullar va kullar”ning mamlakatiga aylanib qolmasin, ya‘niki ayol jamiyatning quli, ro‘zg‘ori uchun “kori”, mardikori bo‘lmasin, alamli iztiroblar iskanjasida kuyib kulga aylanmasin, ayol dunyosini baxt deb atalmish ne‘mat bilan bezang, deya zamondoshlariga ham iltimos, ham shart qo‘ymoqda. “G‘ullar va kullar mamlakati” ifodasi orqali muallif butun bir davr, zamon va makonlar manzarasini tasvirlab beradi. “G‘ullar va kullar mamlakati” qanday mamlakat? Na erki, na orzusi, umidi, aqalli bir shirin xayoli bo‘lmagan, faqat va faqat dunyo tashvishi uchun yelib-yugurgan, umrini mehnatga almashgan, o‘z fitratiga nomunosib bo‘lgan og‘ir hayot tarziga moslashtirilgan ayollar jamiyati ikki so‘zda muajjassamlashtirilgan.

Shoirning shoirligi, qalamining o'tkirliigi, zamonaga teran nigoh orqali boqa bilishi uning ijod mahsulining har bir jumlasida o'z aksini topadi. Xulosa qilib aytganda, mazkur she'r 1980-yillar oxiridagi ayollar fojiasini badiiy shaklda ifoda etgan ijtimoiy-badiiy xotira hujjatidir. U faqat bir davrning og'rig'inigina emas, ayolning or-nomusini abadiy himoya qila oladi. She'r bugungi kun uchun ham dolzarb, u ayolni faqat oila va ro'zg'or ramzi sifatida emas, balki inson, ruh, his-tuyg'u sohibasi sifatida anglashga chorlaydi. U tarixiy fojeani tasvirlar ekan, zamona uchun ham ogohlantiruvchi xabar beradi.

“Ko'z yosh ichga oqmasin, illo, sel olib ketajak butun o'lkani.”

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Абдуллаева, З. (2022). Интерпретация женского образа: традиция и обновление. Вопросы филологии, (2), 33–39.
2. Abdunazarova, N. (2024). O'ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZI. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(11), 363–365
3. Asqar Mahkam. Muhabbat risolasi. – Toshkent: Yozuvchi, 2008.  
Sitora Shomurodova “Hur” she'rlar to'plami.-Toshkent: Yangi kitob, 2025